

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2022-yilning

III- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘i Sh. Mamadaliyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2022-yilning III choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma’lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabkima’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg‘onaviyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmijoriy narxlarda 3 9665,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 4,7 % ga o‘tdi. YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 112,1 % ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,3 % ga yetdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 21 831,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,0 % ni tashkil etdi.

2022–yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 24 119,0 mlrd. so‘mni yoki 2021–yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni

Joriy yilning yanvar-sentabr oylariga, Farg‘ona viloyatida jami 6 204,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **54 254** tani tashkil etib, ulardan **51 310** tasi yoki **94,5** % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda **6 803** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **15,9** trln. so‘mni, 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **114,5** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **17,5** trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **109,8** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 1 565,8 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 640,3 mln. AQSH dollari va import – 925,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni 3 954,2 ming ishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 57,8 ming kishiga yoki 1,4 % ga ko‘paydi. Farg‘ona viloyatida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 112,4 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 10 715,8 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 64,1 % i yoki 6 873,9 mlrd. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilotlar va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 35,9 % yoki 3 841,9 mlrd. so‘m moliyalashtirildi.